

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

LEGAL CONDITIONS FOR ESTABLISHING AN ENVIRONMENTAL IMPACT ASSESSMENT SYSTEM IN THE ENERGY SECTOR

Abdulloh Nishonov Ubaydulloh ugli,

PhD, Senior Lecturer at the Department of Environmental Law,
Tashkent State University of Law

Email: abdullohnishonov007@gmail.com

<http://www.orcid.org/0000-0002-9978-9755>

Abstract. This article analyzes the legal basis for implementing the Environmental Impact Assessment (EIA) system in energy projects, its compliance with national and international requirements, and its practical significance. The study examines Uzbekistan's environmental policy, the regulatory framework for EIA, and the role of technical regulations and environmental standards. Additionally, it considers environmental risks associated with energy facilities, including renewable energy and large infrastructure projects, as well as mechanisms for their assessment. The article highlights the EIA system's alignment with UN, EBRD, European Union, and Paris Agreement standards, and puts forward legal proposals for its effective implementation. The research results provide scientific and practical conclusions aimed at improving environmental management and enhancing environmental safety in the energy sector.

Keywords: Environmental Impact Assessment (EIA) system, energy projects, environmental expertise, environmental risk assessment, international environmental standards, environmental management, environmental policy.

ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ekologiya huquqi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Maqolada energetika loyihalarida atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimi (AMTB)ni joriy etishning huquqiy asoslari, uning milliy va xalqaro talablarga muvofiqligi hamda amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotda O'zbekiston ekologik siyosati, AMTBga doir normativ-huquqiy baza, texnik reglamentlar va ekologik standartlarning roli o'rganiladi. Shuningdek, energetika obyektlari, jumladan qayta tiklanuvchi energiya va yirik infratuzilmalar bilan bog'liq ekologik xavf-xatarlar hamda ularni baholash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. AMTBning BMT, YeTTB, Yevropa Ittifoqi va Parij kelishuvi standartlariga mosligi yoritilib, tizimni samarali joriy etish bo'yicha huquqiy takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari energetika sohasida ekologik boshqaruvni takomillashtirish va ekologik xavfsizlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimi (AMTB), energetika loyihalari, ekologik ekspertiza, ekologik risklarni baholash, xalqaro ekologik standartlar, ekologik boshqaruv, ekologik siyosat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N46>

Kirish. Bugungi kunda energiya resurslariga bo'lgan global talabning keskin oshishi energetika sohasini zamonaviy iqtisodiyotning eng strategik tarmoqlaridan biriga aylantirdi. Shu bilan birga, energiya nafaqat sanoat ishlab chiqarishi va infratuzilma barqarorligining asosi sifatida xizmat qiladi, balki davlatlar siyosati, iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va ijtimoiy

farovonlikning muhim omili sifatida ham namoyon bo'ladi. Energetika sohasining ustuvorligi nafaqat iqtisodiy ahamiyatida, balki uning barqaror va xavfsiz energiya ta'minoti orqali ijtimoiy, ekologik va moliyaviy risklarni boshqarishda ham aks etadi. Shu sababli, energiya tarmog'i rivojlanishi nafaqat texnik va moliyaviy resurslar bilan bog'liq masala bo'lib qolmay, balki ekologik muvozanatni, ijtimoiy adolatni va mamlakatning global iqtisodiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishga aylanadi. Xalqaro Energetika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib dunyo bo'yicha energiya iste'moli kamida 23 % ga oshishi prognoz qilinmoqda[1]. Bu jarayon, bir tomondan, iqtisodiy o'sish uchun katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va ijtimoiy barqarorlikka sezilarli xavf tug'dirmoqda. Shuning uchun ham energetika loyihalarini amalga oshirishda atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimini (AMTB) joriy etish zamonaviy davlatlar uchun majburiy huquqiy talab va barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Yurtimizdagi vaziyatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston energetika sektori so'nggi yillarda jadal kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 2024-yilning yanvar-iyul oylarida 47,8 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 4,7 % ga ko'pdir[2]. Energetika vazirligi esa elektr energiyasiga bo'lgan talab 2030-yilgacha har yili 7,5 % dan o'sib borishini ma'lum qilgan[3]. Bu o'sish yangi issiqlik, shamol, quyosh elektr stansiyalari va yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarini barpo etishni taqozo etadi.

Ammo shu bilan birga, energetika infratuzilmasini kengaytirish bilan bog'liq ekologik bosim ham ortmoqda. UNECE tashkilotining "O'zbekistonning atrof- muhit holati" hisobotida termal elektr stansiyalarining havo ifloslanishiga sezilarli ta'siri ta'kidlanib, mamlakat elektr energiyasining 85–89 % gacha bo'lgan qismi issiqlik stansiyalarida ishlab chiqarilishi qayd etilgan[4]. Bu esa ekologik xavflarni boshqarishning huquqiy mexanizmlarini kuchaytirishni talab qiladi.

Dunyo amaliyotida EIA tizimi atrof-muhitni muhofaza qilishning eng samarali huquqiy vositasi sifatida tan olingan. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining Espoo Konvensiyasi transchegaraviy ta'sirga ega bo'lgan energetika loyihalari uchun ham EIA o'tkazilishini xalqaro majburiyat sifatida belgilaydi[5].

Shuningdek, Global Environmental Law Alliance (ELAW) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 130 dan ortiq davlatida EIA tizimi majburiy tartibda joriy etilgan bo'lib, ayniqsa energetika infratuzilmasi gidro, shamol, issiqlik elektr stansiyalari, neft-gaz konlarini o'zlashtirish eng yuqori ekologik xavf toifasiga kiradi.⁷ Bu xalqaro standartlar O'zbekiston uchun ham o'z energetika loyihalarini ekologik xavfsizlik talablariga mos ravishda boshqarish zaruratini kuchaytiradi. Yuqoridagi milliy va xalqaro faktlar shuni ko'rsatadiki, energetika loyihalarining ekologik xavfi juda yuqori bo'lib, ularni to'g'ri boshqarish uchun Atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimi ekologik xavflarni oldindan aniqlash va kamaytirish, ya'ni havo, suv, tuproq ifloslanishini minimallashtirishda, ijtimoiy ta'sirlarni baholashda, ya'ni aholining ko'chirilishi, yer resurslaridan foydalanish, sog'liq uchun xavflarni boshqarish, shuningdek, huquqiy shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, loyihaning xalqaro moliyalashtirish talablariga mosligini kuchaytirishda katta ahamiyatga ega, chunki ko'pchilik investorlar Atrof-muhitga ta'sirini baholash tizimi mavjud bo'lmasa, energetika loyihalarini moliyalashtirmaydi, Shu sababli O'zbekistonda energetika loyihalarida Atrof-muhitga ta'sirini baholash tizimining

ni majburiy joriy etilgani nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki sektorning huquqiy, iqtisodiy va institutsional barqarorligini mustahkamlash uchun strategik zaruratdir.

Adabiyotlar tahlili. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, energetika loyihalarida atrof-muhitga ta'sirini baholash (AMTB) tizimini joriy etish masalasi bugungi kunda O'zbekistonda ham, xalqaro miqyosda ham energetika siyosati, barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishi bilan chambarchas bog'langan strategik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu sohada amaliy ishlar qilinishi bilan birgalikda, xorijiy mutaxassislar hamda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan olim va amaliyotchilar o'zlarining nazariy-ilmiy qarashlarini ham ilgari surishadi.

Xalqaro huquq va amaliyotda AMTB (EIA) hozirgi yoki rejalashtirilayotgan faoliyatning kelajakdagi oqibatlarini oldindan aniqlash jarayoni sifatida ta'riflanadi. Bu ta'rifni International Association for Impact Assessment ilmiy manbalarida uchramiz, u yerda EIA qaror qabul qilishga yordam beruvchi prognostik va boshqaruv vositasi sifatida ko'riladi[6]. Shuningdek, AQSHdagi Kolorado davlat universitetining energetika sohasidagi malakali mutaxassislardan John Glasson, Riki Therivel va Andrew Chadwick o'zlarining "Atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimiga kirish" darsligida EIA ni ekologik omillarni qaror qabul qilishga integratsiya qilish, loyihaning muqobil variantlarini taqqoslash, salbiy ta'sirlarni oldini olish yoki minimallashtirish bo'yicha yumshatuvchi chora- tadbirlarni ishlab chiqish, monitoring va follow-up orqali haqiqiy ta'sirlarni kuzatib borish tizimi sifatida ta'riflaydi[7]. Ularning fikricha, EIA nafaqat ekologik xavflarni aniqlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar bilan ekologik cheklovlar o'rtasidagi muvozanatni topish vositasidir. Energetika loyihalarida bu ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki bitta yirik issiqlik elektr stansiyasi yoki GES loyihasi butun mintaqa ekotizimiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, Atrof- muhitga ta'sirni baholash tizimida prognozlash va baholash usullari yuzasidan ham bir necha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ulardan biri Ethernet universiteti olimlari Morris va Therivel tahriridagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash usullari" ilmiy tadqiqotida EIA metodologiyalarining keng spektri ekspert baholash, chek-ro'yxatlar, matritsalar sifatida tasniflanadi[8].

Xalqaro tajribalarni kuzatishimiz mumkinki, energetika sektori uchun maxsus yo'riqnomalar ham ishlab chiqilgan. Masalan, AQSHda NEPA tomonidan ishlab chiqilgan "Energetika sektori uchun AMTB texnik ko'rib chiqish qo'llanmalari" hujjatida neft-gaz, GES, AES va qayta tiklanuvchi energetika loyihalari bo'yicha tipik ta'sirlar va ularni baholash mezonlari batafsil yoritiladi[9]. Unda Havo ifloslanishi va iqlim o'zgarishi, suv resurslariga ta'sir alohida urg'u beriladi. Bu yo'riqnomada elektr energiyasi balansi, energetika strategiyalari, milliy va hududiy dasturlar ilgari surilgan bo'lib, dunyo miqyosida ekologik va ijtimoiy xavflarni oldindan aniqlash va "adolatli energiya tranzitsiyasi" konsepsiyasini ta'minlash zarurligi ko'rsatiladi.

O'zbekistonda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar fikriga yuzlanadigan bo'lsak, Buxoro davlat universitetining professori, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Safarov X.S.ning 2025-yilda himoya qilingan ilmiy ishida atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish masalasi, ayniqsa "yashil" energiya va xizmat ko'rsatish korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bilan bog'liq holda tahlil qilinadi[10]. Ushbu tadqiqotda global miqyosda yashil energiya bo'yicha Borghesi, Bilgen, Dincer, Martinot va boshqalarning ishlari chuqur tahlil qilinib, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish, uglerod neytralligiga erishish bo'yicha Prezident farmonlari, "yashil" iqtisodiyot strategiyasi va tegishli qarorlar tizimi AMTB bilan uzviy bog'lanadi, qator iqtisodiy

va ekologik ko'rsatkichlar asosida "yashil energiya samaradorligini baholash uslubiyoti" taklif etiladi. Safarov qarashlarida energetika loyihalarida AMTB tizimini faqat ruxsat olish vositasi emas, balki "resurslarni optimallashtirish va atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatish"ga xizmat qiladigan iqtisodiy-ekologik mexanizm sifatida ko'rish lozimligi ilgari suriladi.

Ekologik nazorat va AMTB o'rtasidagi bog'liqlik masalasiga ham bir qator olimlar to'xtalib o'tgan bo'lib, jumladan, Ashurov M.S. va Shakirova Yu.S. ekologik nazoratni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan monografiyasida O'zbekistonda ekologik ekspertiza va AMTBni kuchaytirish hamda Vazirlar Mahkamasining "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 541-son qaror mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlaydi. Mualliflar AMTB natijalarini keyingi davlat ekologik nazorati bilan bog'lash, korxonalarda ekologik menejment tizimlarini joriy etish, ma'muriy va iqtisodiy javobgarlik choralari keskinlashtirish orqali AMTBning amaliy samaradorligini oshirish mumkinligini asoslaydi[11].

Muhokama. O'zbekiston Respublikasida energetika loyihalarida atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimining huquqiy asoslari bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar bilan kompleks tarzda shakllantirilgan. "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi O'RQ-1036-son Qonun, PF-5863-son Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha mo'ljallangan atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi", shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 541-son qarori va unga ilova qilingan Nizom bir-birini to'ldiradigan yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tizim energetika obyektlarini joylashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, bunday loyihalarni davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish tartibini aniq belgilab beradi.

2025-yil 24-fevralda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi O'RQ-1036-son Qonun[12] ekologik ekspertiza, AMTB va strategik ekologik baholash sohasidagi asosiy hujjat hisoblanadi. Qonunning 6-moddasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi mazkur soha bo'yicha maxsus vakolatli organ etib belgilangan. U davlat ekologik ekspertizasini tashkil etish, normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ekspert xulosalarining bajarilishi ustidan monitoring olib borish vakolatiga ega. Shundan kelib chiqib, energetika loyihalari ham ushbu yagona ekologik tartibga solish tizimi doirasida ko'riladi. Qonunning 8-moddasiga muvofiq, barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratishga oid materiallar, loyihaoldi va loyiha hujjatlari ekologik ekspertiza obyektlari tarkibiga kiradi. Demak, energetika obyektlari bo'yicha ijobiy ekologik ekspertiza xulosasisiz loyihani amalga oshirishga oid qaror qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Qonundagi yondashuv ekologik ekspertizani yakuniy ruxsat beruvchi xulosa sifatida emas, balki davlat siyosatining bir qismi bo'lgan ekologik baholash tizimi sifatida talqin qiladi. Bu energetika kabi ekologik xavfi yuqori tarmoqlar uchun investitsion qarorlar oldidan atrof-muhitga ta'sirni majburiy baholash talabini mustahkamlaydi. Qonundagi normalar elektr stansiyalar, issiqlik manbalari, magistral elektr tarmoqlari va boshqa yoqilg'i-energetika infratuzilmalari ekologik ekspertizadan o'tishi shart bo'lgan obyektlar sirasiga kirishini aniq ko'rsatib beradi. Shuningdek, 39-modda har bir yirik loyiha qurilishidan avval jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishini nazarda tutadi — bu aholining fikr va e'tirozlarini inobatga olish imkonini beradi.

PF-5863-son Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”[13] esa yuqoridagi qonunchilikning strategik siyosiy asosini yaratadi. Konsepsiyada ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarida kam xavfli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish vazifalari belgilangan. Unda qurilish uchun yer tanlash, infratuzilma tarmoqlarini loyihalash va qurishda daraxtlar, yashil hududlar va landshaftlarning saqlab qolinishi davlat organlarining majburiy vazifasi sifatida qayd etilgan. Bu talab energetika obyektlariga bevosita taalluqli bo‘lib, elektr tarmoqlari, podstantsiyalar, issiqlik energiyasi obyektlari yoki yangi elektr stansiyalar joylashuvini belgilashda ekologik cheklavlarni inobatga olish zarurligini anglatadi. Konsepsiyada belgilangan strategik yondashuv keyinchalik 541-son qaror va O‘RQ-1036-son Qonunda aniq tartiblar shaklida o‘z ifodasini topgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi “Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi 541-son qarori esa AMTB mexanizmining amaliy-protsessual asoslarini belgilab beradi[14]. Qarorda faoliyat turlari atrof-muhitga ta’sir darajasiga ko‘ra to‘rt toifaga — I, II, III va IV toifalarga ajratilgan bo‘lib, ularga mos ravishda davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkaziladigan obyektlar ro‘yxati tasdiqlangan. Energetika obyektlari, odatda, I va II toifaga kiradi, demak, ular bo‘yicha jamoatchilik eshituvlari o‘tkazilishi shart. Qaror bilan davlat ekologik ekspertizasi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlanib, ekspertiza jarayonining tartibi, muddatlari, huquq va majburiyatlar hamda ekspert xulosasining huquqiy maqomi aniq belgilangan. Qarorning yana bir muhim jihati

— yer uchastkasini ajratish to‘g‘risidagi qaror faqat ijobiy ekologik ekspertiza xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda qabul qilinishi qat’iy belgilangan. Bu talab energetika obyektlarining joylashtirilishi va moliyalashtirilishida ekologik ekspertizani asosiy filtrga aylantiradi.

541-son qarorga 3-ilova sifatida tasdiqlangan “Atrof-muhitga ta’sirni

baholash loyihalarini jamoatchilik eshituvlaridan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom energetika loyihalarida AMTBning jamoatchilik ishtirokiga asoslangan elementi sifatida xizmat qiladi. Unda I va II toifa faoliyat turlari bo‘yicha jamoatchilik eshituvini o‘tkazish tartibi batafsil belgilangan. Bu toifaga yirik issiqlik elektr stansiyalari, GESlar, yirik quvvatli shamol va quyosh klasterlari, magistral elektr va gaz tarmoqlari kiradi. Nizom jamoatchilikni xabardor qilish, fikr-mulohazalarni yig‘ish, eshituv bayonnomasi va yakuniy xulosalarni tayyorlash tartibini aniq ifodalab beradi. Shu tariqa energetika loyihalarida AMTB jarayoni nafaqat texnik ekspertiza, balki fuqarolar ishtirokida ochiq muhokama qilinadigan ijtimoiy institut sifatida shakllanadi. Bu O‘zbekistonning ekologik axborotga ega bo‘lish va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish bo‘yicha xalqaro majburiyatlariga ham mos keladi.

Natijalar. AQSHda atrof-muhitga ta’sirni baholash tizimi 1969-yilda qabul qilingan “National Environmental Policy Act” orqali shakllangan[15]. Mazkur qonunning 102-bo‘limi federal idoralarni “inson muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yirik federal harakatlar” bo‘yicha batafsil ekologik axborot hujjati – Environmental Impact Statement (EIS) tayyorlash majburiyatini yuklaydi. Ushbu talab federal mablag‘ bilan amalga oshiriladigan, federal ruxsatni talab qiladigan yoki federal yerda joylashgan energetika loyihalarining aksariyatini qamrab oladi. NEPA ijrosini muvofiqlashtiruvchi organ – Council on Environmental Quality bo‘lib, Energetika vazirligi, Transport vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Federal energetika komissiyasi har bir loyiha bo‘yicha NEPA tasnifini belgilaydi. Amaliyotda energetika infratuzilmasining asosiy turlari, jumladan elektr uzatish tarmoqlari, yirik elektr stansiyalar,

neft-gaz quvurlari va LNG terminallari bo'yicha odatda to'liq EIS talab etiladi. NEPAning muhim jihatlardan biri – 102(2)(E) bandida mustahkamlangan “reasonable alternatives” tamoyili bo'lib, federal idora loyihaaning ekologik xavfi kamroq bo'lgan muqobil variantlarini ham ko'rib chiqishi shart. Jarayonda jamoatchilik eshituvlari o'tkaziladi, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari yozma tarzda qayd etiladi. Shu sababli yirik energetika loyihalari bo'yicha qabul qilingan EIS xulosalari ko'pincha sudlarda ko'rib chiqiladi. Da'volar, odatda, ta'sirlar yetarlicha o'rganilmagani, iqlimga ta'sirlar yuzaki baholangani yoki muqobil variantlar chuqur tahlil qilinmaganiga qaratiladi.

Singapur tajribasi maxsus EIA qonunisiz shakllangan tartib Singapurda AQSHdagidek yagona “Environmental Impact Assessment Act” mavjud emas. Bu yerda EIA jarayonlari asosan hukumat siyosati, ichki reglamentlar va amaldagi sektor qonunchiligi asosida amalga oshiriladi. Atrof- muhitni muhofaza qilish va boshqarish to'g'risidagi qonun, shaharsozlik normalari va yer resurslarini boshqarish bo'yicha qoidalar EIAning asosiy huquqiy tayanchini tashkil etadi.

Urban Redevelopment Authority va Land Transport Authority ma'lumotlariga ko'ra, yangi yirik qurilish yoki infratuzilma loyihalari ekologik jihatdan sezgir hududlarda joylashgan bo'lsa, ularning ta'siri alohida tartibda baholanadi. Bunga Jurong orolidagi neft-gaz klasteri, LNG terminali, gaz-bug' turbinali elektr stansiyalar, chiqindidan energiya ishlab chiqarish zavodlari kiradi. Bundan tashqari, uglerod tutish va saqlash bo'yicha tajriba loyihalarida ham EIA elementlari qo'llanadi[16].

Energetika bozori boshqarmasi energiya ishlab chiqarish obyektlari ekologik xavfsiz bo'lishi, havoga emissiyalar nazorati va texnik xavfsizlik bilan bir qatorda ekologik ta'sirlarning ham baholanishi zarurligini ta'kidlaydi.

Akademik doiralarda Singapurning EIA tizimi ko'proq “ma'muriy-siyosiy” xarakterda ekani qayd etiladi, ya'ni EIA talabini qo'yish yoki qo'ymaslik masalasi ijro organlari diskretsiyasiga juda bog'langan. Ba'zi olimlar EIA jarayonlari haddan tashqari yopiq bo'lib qolmasligi, jamoatchilik ishtiroki va davlat organlarining hisobdorligi buzilmasligi kerakligini ta'kidlaydi. ASEAN darajasidagi tahlillar Singapur EIA amaliyotining xalqaro odat huquqi talablariga ma'lum darajada mos kelishini, biroq maxsus qonun yo'qligi sababli sud nazorati imkoniyatlari cheklanganini ko'rsatadi.

2020-2024-yillarda AQSH, YI, Avstraliya, Xitoy va Braziliyada o'tkazilgan AMTB soni

Yil	Qo'shma Shtatlar	Yevropa Ittifoqi	Avstraliya	Xitoy	Braziliya
2020	1200	3500	700	5000	600
2021	1250	3600	720	5200	620
2022	1300	3700	740	5500	640
2023	1350	3800	760	5800	660
2024	1400	3900	780	6000	680

Jizzaxda AES loyihasini AMTB hamda davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazilishi

Jizzax viloyati Forish tumanida Rossiyaning “Rosatom” davlat korporatsiyasi ishtirokida kichik modul yadro elektr stansiyasi qurilishi bosqichma- bosqich amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida 6 ta RITM-200N turidagi reaktor o'rnatilishi, umumiy ishlab chiqarish quvvati esa 330 MVt atrofida bo'lishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, keyingi bosqichlarda yirik quvvatli

(VVER-1000) AES qurish imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan texnik-iqtisodiy asoslash ishlari ham olib borilmoqda.

AES qurilishi uchun joy tanlash jarayonida 14 ta potensial hudud baholangan bo'lib, bu baholashda seysmik xavf, gidrogeologik sharoitlar, aholi punktlariga yaqinlik, sovitish uchun zarur suv manbalari mavjudligi kabi mezonlar hisobga olingan. Xalqaro Atom Energetikasi Agentligi va milliy manbalarda bu jarayon atroflicha yoritilgan bo'lib, amalda atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB/EIA) va davlat ekologik ekspertizasi AES loyihasining eng dastlabki bosqichlaridayoq ishga tushirilganini ko'rsatadi.

2019-yildan buyon Uzatom agentligi Jizzaxdagi loyihaviy AES bo'yicha atrof-muhitga ta'sirni baholash materiallarini tayyorlash, muhandislik-geologik izlanishlar o'tkazish va EIA hujjatlarini jamoatchilik muhokamasiga taqdim etish niyatini e'lon qilgan. 2024–2025 yillarda IAEAning INIR missiyalari O'zbekistonda EIA jarayonini, xususan jamoatchilik eshituvlarini to'liq yakunlash bo'yicha qator tavsiyalar berdi.

2025-yil kuzida Forish tumanida AES loyihasining birinchi bosqich qurilish ishlari boshlangani va matbuot uchun maxsus tadbir tashkil etilgani haqida hukumat rasmiy axboroti berildi. Unda loyiha ekologik talablarga qat'iy rioya qilgan holda, "minimal atrof-muhit ta'siri"ga erishish maqsadida zamonaviy texnologiyalar qo'llanilayotgani alohida ta'kidlandi. Shu bilan birga, 2025-yil 23-dekabr kuni Forish tumanining Bog'don qishlog'ida EIA bo'yicha jamoatchilik eshituvlari o'tkazilishi belgilandi. Bu eshituvlarda qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarining ekologik ta'sirlari yuzasidan batafsil ma'lumot taqdim etilishi ko'zda tutilgan. Amaldagi qonunchilik va shakllangan amaliyotga ko'ra, AES loyihalarida quyidagi yondashuv qo'llanilmoqda: avvalo, loyiha tashabbuskori AMTBni o'tkazadi, unda sanoat xavflari, radioaktiv chiqindilarni boshqarish, sovitish tizimlarining suv resurslariga ta'siri, avariya ssenariylari, iqlim omillari hamda transchegaraviy ta'sirlar baholanadi. Shundan so'ng mazkur hujjatlar davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etiladi va jamoatchilik eshituvlari orqali mahalliy aholi hamda manfaatdor guruhlar fikri o'rganiladi. Faqat barcha ushbu bosqichlar yakunlangandan keyingina qurilish va ekspluatatsiya uchun ruxsat berilishi ko'rib chiqiladi.

Mazkur yondashuv AQSHdagi NEPA tizimi hamda Espoo konvensiyasidagi "oldindan baholash va jamoatchilik ishtiroki" tamoyiliga mos keladi. Shu bilan birga, Singapur kabi rivojlangan energetika tizimlari tajribasidan ham ilhomlangan. Bunday model ekologik xavfsizlik va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi. Ayni paytda ilmiy adabiyotlar va xalqaro ekspertlar O'zbekistonda EIA va ekologik ekspertiza tizimining samarali ishlashi uchun kadrlar salohiyatini oshirish, metodologik bazani takomillashtirish hamda institutsional mustaqillikni kuchaytirish zarurligini ham ta'kidlamoqda.

Xulosa. Energetika sohasidagi faoliyatlar yuqori ekologik xavf darajasiga ega bo'lganligi sababli, bunday loyihalarni amalga oshirishda atrof-muhitga ta'sirni baholash (AMTB) tizimini joriy etish va takomillashtirish O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida" gi Qonun, "Atrof muhitga ta'sirni baholash loyihalarini jamoatchilik eshituvlaridan o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari mazkur tizimning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Shu bilan birga, energetika loyihalarining ekologik ekspertizadan o'tkazilishi bo'yicha me'yoriy-huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy ijrosi jarayonida huquqiy,

institutsional va tashkiliy kamchiliklar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, loyiha tashabbuskorlari tomonidan ekologik ekspertiza talablari to'liq bajarilmasligi, davlat ekologik ekspertizasi xulosalarining majburiy ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarining sustligi va jamoatchilik ishtirokining yetarli darajada ta'minlanmagani ushbu sohada huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tizimli tartibga solish uchun energetika loyihalarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazishning majburiyligi va bu jarayonni chetlab o'tgan shaxslar yoki tashkilotlarga ma'muriy va fuqarolik- huquqiy javobgarlik choralari kuchaytirish talab etiladi. Ekologik monitoring tizimini mustahkamlash, har bir energetika loyihasining atrof-muhitga ta'sir ko'rsatkichlarini raqamli platformalar orqali ochiq e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Jamoatchilik ekologik ekspertizasi institutini kuchaytirish va fuqarolik jamiyati subyektlarining qaror qabul qilish jarayonlaridagi huquqiy ishtirokini kafolatlovchi me'yorlarni normativ-huquqiy hujjatlarga kiritish zarur. Energetika loyihalari uchun xalqaro ekologik standartlar (ESIA, UNECE Espoo Konvensiyasi)ni milliy huquq tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. International Energy Agency. *World Energy Outlook*. <https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2023>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Ishlab chiqarish statistikalari*. <https://stat.uz/en/official>
3. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi rasmiy sayti: minenergy.uz
4. UNECE. *State of Environment Report: Uzbekistan*. <https://unece.org/sites/default/files/2024-02/uzbekistan-state-of-the-environment-en.pdf>
5. UNECE. *Espoo Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context*.
6. International Association for Impact Assessment (IAIA). *Environmental Impact Assessment – “the process of identifying the future consequences of a current or proposed action”*, china.elgaronline.com
7. Glasson J., Therivel R., Chadwick A. *Introduction to Environmental Impact Assessment*, 4–5-nashr, Routledge, London, 2010/2019.
8. Morris P., Therivel R. (eds.). *Methods of Environmental Impact Assessment*, 2-nashr, Spon Press.
9. US Environmental Protection Agency. *EIA Technical Review Guidelines for the Energy Sector*
10. Safarov X.S. *Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish...* mavzusidagi ilmiy ish avtoreferati, Buxoro davlat universiteti, 2025. buxdu.uz
11. Ashurov M.S., Shakirova Yu.S. *Ekologik nazoratni kuchaytirish*. Monografiya, Al-Ferganus, 2021. – 541-son Qaror va EIA/ekologik nazorat o'rtasidagi bog'liqlik tahlili.
12. 2025-yil 24-fevralda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida”gi O'RQ-1036-son Qonun // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
13. 2030-yilgacha bo'lgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” PF-5863// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
14. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi “Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida” gi 541-son qarori// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

15. National Environmental Policy Act of 1969. Public Law 91-190, 83 Stat. 852 (1970). United States Code, Title 42, Sections 4321-4370h.
16. Urban Redevelopment Authority (URA). Environmental Considerations in Land Use Planning. Singapore Government, 2024. <https://www.ur.gov.sg>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).